

oltin bayrog'ing. Sohilingda bordir yashil, keng bog'lar,
Gullari uyg'onur cho'chib bo'sangdan. Abadiy kuyingni tumanli tog'lar
Tinglaylar bir ulug' sukunat bilan. [2, 19]

Shoirning yuqoridagi she'rida haqiqatdan ham dengiz qalb shoir ekanligining isbotini ko'ramiz. Dengizning mavj urishini "Erkalan, sho'x dengiz..." juda chiroyli o'xshatish, ajoyib topilma. Qoyalarni bardoshli hisoblaymiz, biroq shoirning mahorati shundaki, seni ko'rib shaydoligidan sukutga cho'mgan - deya fikr bildiriladi.

Shoir she'rlaridagi inson his-tuyg'larini dengiz singari goh sukunat, goh shiddat bilan mavj urishiga qiyos etadi. Uning she'rlarida nozik hislarni uyg'otishga kirishiladi va bu she'rlar yurak-yuragimizga singib ketadi.

Sahro jimgina uxlar,
Ko'kda yulduzlar porlar, Tevalar sekin- sekin ilgari qadam otar.

Tarqalar qo'ng'iroqdan
Bir tovush, umid to'la. Aks etib ko'p uzoqdan,
Derki: "Naridan so'ra!..."[2,13]

Yurtimiz sarhadlarini kezgan bu shoir, hech narsani yoddan chiqarmaslikka intiladi. Inoyat Maxsumov Oybekni yodga olishni o'ziga baxt deb hisoblaydi: "Men mashhur shoirimiz dono mutafakkir adibimiz Oybek akani uning asarlarini o'qib taniganman va u kishiga g'oyibona muhabbat qo'ganman. Keyin 1932-1933 yillarda o'zlari bilan tanishish va hamsuhbat bo'lish sharafiga muyassar bo'ldim." [1,128]. U she'rlarida umid uchqunlarining sochuvchisi ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Og'ir-og'ir qanot qoqib, Uvalardan qushlar uchdi.
Tog'-toshlarga chechak taqib, Ufqnlarni quyosh quchdi.

Keng qirlarning erkin yeli
Chechaklardan o'pish oldi. Buloqlarning erka tili
She'r so'ylab nag'ma chaldi. [2,7]

Tabiat, go'zallik bu fusunkor naqshlar, butun borliq borligining asosi ham mana shu quyoshdir. Oybek tabiatni sevadi, u tabiat bilan birga. She'rlarida ochib berishini Hamid Olimjon fikrlarida yaqqol namoyon bo'ladi: "Oybek prozada shoiru poeziyada prozaikdir. U eng mayda ikir-chikirlarni she'rda kuylay biladigan talantli shoirdir. U kishilar porteti, ko'z-qosh harakatlarini juda aniq tasvirlab beradi. Shu bilan birga, uning prozasi lirik poeziya darajasiga ko'tariladi. Oybek kishining qalbiga kira oladi, yurakning nozik torlarini chertib o'tadi...[1,24]

Yarim kecha... Yaproqlar-da uyquda Yurg'un oying xafif nuri yerlarda.
Ko'chalar bo'sh, har tarafda bir sir bor, Titrar edi har burchakda oh-zor. [3,15]

Butun zamin uyquga cho'mgan bir pallada shoir xayollari unga tinchlik bermas, ko'zlar uyqu istamaydi. Uni bu xayollar g'aflatda yotgan kimsalarni, milliy o'zliksiz beparvo yashayotganlarni uyg'otish payida. Oy ularga yorug'lik, yaxshi kunlarga dalildir. Tabiatni sevmagan inson johil insondir. Mana shu johillik qarshi kurashishni shoir o'ziga vazifa sifatida yuklaydi.

**Quyosh, nuring to'ka ber mo'l-ko'l! Bahor, ketma bizning boshlardan.
Yurtimizda qolmasin dasht-cho'l, Chaman kulsin
hatto toshlardan!**

**Yarqiray ber, quyosh- inqilob! Boshla yangi zafarlarga yo'l.
Jahonlarga qilamiz xitob: "Abadiy baxt berdi bizga qo'l" [4,73]**

Quyosh porloq kelajak timsolidir. Bu baxt kaliti tutgan qo'ldir. U she'r yozdi siyoh bilan yozilib inson qalbiga qon bo'lib kirdi. Yuraklarimizga mangu singib yashaydi. "Talant qanchalik katta, qanchalk qudratl bo'lmasin, har nechuk yuzada bo'lmaydi, konga o'xshash yerning qarida bo'ladi. Bu kon – talantni qazib olish uchun, avvalo, katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch-g'ayrat, bularning ustiga dard bo'lishi kerak,"- deydi yozuvchi va safdoshi Abdulla Qahhor. [1, 27] Oybek she'rlari badiiy-tasviriy jihatdan yuksak darajada bitilgandir. Shoir she'rlarida insoniy fazilatlar-u hissiyotlar ulug'lanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.L.Qayumov va R.Ibrohimova. Oybek zamondoshlar xotirasida.Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.- 224 b.

2. Oybek. Sozim.Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1980 64 b.

3. Oybek. Mukammal asarlar to'plami 1-jild.Toshkent.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti.1975. 476 b.

4. Oybek. Mukammal asarlar to'plami 2-jild.Toshkent.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti.1975. 472 b.

PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH

Otabayeva Sevaraxon Shaxobdinovna


(Andijon davlat universiteti, "Axborot texnologiyalari" kafedrasida o'qituvchisi)

Azizova Durdona

(Andijon davlat universiteti, magistranti)

Pedagogik tadqiqotlar - ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklar va muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishning maqsadli tashkil etilgan jarayoni hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish pedagogik faoliyatni modellashtirishni nazarda tutadi. Aynan model pedagogik muammolarni o'rganish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlarning mazmuni aspektlari o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator tarkibiy qismlardan (1rasm) iborat:



1 rasm. Pedagogik tadqiqotlarning tarkibiy qismlari

Taqqoslash - har qanday pedagogik tadqiqotning boshlanish nuqtasidir. Bir xil o'rganish ob'ektining turli vaqtlarda olingan natijalarini ularning o'zgarish dinamikasini aniqlash uchun solishtirishdir.

Tahlil - o'rganish ob'ektining tarkibiy elementlarini o'rnatishga qaratilgan, pedagogik og'ishlarning sabablarini yoki rivojlanish (shakllanish) xususiyatlarini aniqlash.

Bashoratlash - pedagogik jarayonning asosli qurilishi hisoblanib, tadqiqot davomida olingan natijalar. Bashoratlashning maqsadi - ob'ektning pedagogik tasviriga ko'ra, pedagogik jarayonni modellashtiradi.

Interpretatsiya - amalga oshirish jarayonida olingan natijalarni tizimlashtirish va baholash usullari (diagnostika), ularni umumiy ko'rinishga keltirishga aytiladi.

Tadqiqot natijalari haqida ma'lumot berish - kurs davomida olingan tadqiqot natijalari og'zaki taqdimot, nashr va h.k.